

O‘SPIRINLIK DAVRIDA O‘QUV FAOLIYATI . O‘SPIRINLARDA KASB TANLASH MUOMMOLARI VA YECHIMLARI.

Toshpo‘latova O‘g‘iloy Baxtiyor qizi
Termiz Davlat Universiteti talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘spirinlarning kasbga yo‘naltirishning nafaqat ijtimoiy, balki psixologik muammo ekanligi, bu ikki nuqtai nazar har doim bir-birini to‘ldirib kelishligi, shuningdek, kasbga yo‘naltirishning individual psixologik xususiyatlarining imkoniyatlari kasb tanlashdagi muammolari va yechimlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kasbga yo‘naltirish, ijtimoiy muhit, psixologik ta’sir, kasbiy qobiliyat, kasbiy motiv, kasbiy yo‘nalganlik, kasbiy tasavvurlar.

KIRISH

Yoshlarni biror-bir kasbga yo‘naltirishda ijtimoiy muhitning roli asosiy omil sifatida qaralsa, ya’na bir tomondan esa individning o‘z qiziqishlari va layoqatlari asosiy imkoniyat sifatida nomayon bo‘ladi. Bularhar doim bir-birini to‘ldirib keladi.

Aynan o‘spirinlik davrida hayotiy kelajag, rejalarini tuzadigan, o‘z kelajagini yaratishga qadam qo‘ygan asosiy yosh bosqich hisoblanadi. O‘spirinlik bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi uning ijtimoiyjihatdan yetilishi o‘z taqdirini o‘zihal qilishi ijtimoiy hayotga faol ishtirok etish davri fuqarolik va vatanparvarlik kabi ma’naviy sifatlarni tarkib topadigan davirdir. O‘spirinlik davrida mehnat va o‘qish asosiy faoliyat sifatida muhim o‘rin egallaydi. o‘spirinlik yoshida jo‘shqin kuch –g‘ayrat shijoat mardlik kata qahramonona ishlarga romantk ravishta intilishlari avj olgan yosh davridir.

O‘spirinlik davrining o‘quv faoliyati o‘zining mazmuni va xarakterijihatidan o‘smirlar o‘quv faoliyatidan tubdan farq qiladi. Bu yerda asosiy farq ta’lim mazmunining chuqurlashuvi va o‘quvga oid yangi bo‘limlarning kiritilishi bilan emas. Asosiy farq shundaki yuqori sinf o‘quvchilartining o‘quv faoliyati ularning faolligi va mustaqilligiga ancha yuqori talablar qo‘yadi. Dasturni yetarli darajada chuqur o‘zlashtirish uchun nazariy tafakkur rivojlangan bo‘lishi mumkin. V.A.Suxomlinskiy tomonidan quydagi fikr ilgari suriladi ya’ni yuqori sinflardagi o‘qishning qiyinchiliklari shu narsa bilan bog‘langanki ilgari faktlarni mustaqil ravishda tahlil qilmasdan o‘tilgan narsalarni esda saqlab qolish xulosalarni saqlab qolish xulosalarni yodlab olishga qaratilgan yo‘l-yo‘riqlar qaror topgan edi. Ayrim yuqori sinf o‘quvchilarining qiynalishlariga sabab shuki ular tevarak-atrofdagi voqelikni bilib olish maqsadida umumlashtiruvchi tushunchalardan foydalanishni bilmaydilar ana shu bilmaslik shuning uchun ham sodir bo‘ladiki mumlashtiruvchi

tushunchalar xulosalar fikrlar hodisa va faktlarni tadqiq qilish yo‘li bilan tarkib topmaydi balkiyodlab olinadi. O‘spirinning o‘quv fanlariga tanlab munosabatda bo‘lishi dearli butunlay o‘qitishning sifati va darajasi bilan belgilanadi. Ilk o‘spirinlik davridagi o‘quvchilarning o‘quv fanlariga tanlab munosabatda bo‘lishining boshqa muhim sababi ham bor bu sabab ularning ko‘plarida o‘z kasbiy maqsadlari bilan bog‘liq bo‘lgan va qaror topgan qiziqishlarining mavjudligidir.

O‘spirinlik davri va kasb tanlash

Kasb tanlashning ijtimoiy foydali mehnatga o‘z hisasini qo‘shish zarurligini anglash natijasida kasbga yo‘nalish.

Proforientatsiya- yoshlarni hohish istaklari qiziqishlari qobiliyatlariga qarabxalq xo‘jaligi mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda psixologik- pedagogik va tibbiy kasbga yo‘naltirish.

V.A. Krutetskiy o‘spirinlarda uchraydigan motivlardan quyidagilarni alohida ifodalaydi: a) biror o‘quv faniga qiziqish; b) vatanga foyda keltirish istagi (o‘ziga xos psixologik xususiyatini hisobga olmagan xolda); v) shaxsiy qobiliyatini rukach qilish; g) oilaviy an‘analarga rioya etish (vorislik); d) do‘stlari va o‘rtoqlariga ergashish; e) ish joyi yoki oquv yurtining uyiga yaqinligi; yo) moddiy ta‘minlanishining yaxshi ekani; j) o‘quv yurti korinishining chiroyliligi yoki unga joylashish osonligi. Shuningdek boshqa turdagi motivlar masalan, shaxsning biror kasbga, fanga moyilligi, maqsadi, unga intilishi, kasb to‘grisidagi ma‘lumoti, o‘zining sihat salomatligi, asab tizimining va temperamentining xususiyati va xokazolar ham bolishi mumkin. O‘spirinlarda kasblar haqida yaqqol tasavvur bolmasligi sababli ular koproq xatoga yol qoyadilar. O‘z qobiliyatlarini oqilona baholay olmasliklari tufayli u yoki bu kasbni egallash uchun qanchalik tez va aniq harakat qila olishlarini, bu ishga moslasha olishlari mumkinligini bilmaydilar. Biroq hozir mazkur kongilsiz xolatlarning oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun quyidagi pedagogik–psixologik omillarga alohida e‘tibor berish maqsadga muvofiqdir:

1. Kasblarni organish usullarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va londa qilib ifodalash.

2. O‘qituvchining kasblar boyicha tashviqot ishlarini olib borishi.

3. O‘spirinlarni kasbning asosiy turlari bilan tanishtirish.

4. Mehnat ta‘limi darslarida yuqori sinf oquvchilarini kasbga tayyorlash va qiziqish uygotish.

5. Psixodiagnostik va kasb tanlash usullarining amaliyotga tadbiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish.

6. Joylarda zamon talabiga mos kasb tanlash xonalarini tashkil etish.

7. Kasb tanlash targiboti yuzasidan ospirinlarni ommaviy axborot

vositalariga jalb qilish va psixologik tayyorlash.

Tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan kasbga yonaltirishning usul va vositalari ishlab chiqilgan. E. A. Klimov kasbga yonaltirish uchun kasb turlarini «inson-tabiat», «inson-texnika», «inson-inson», «inson-badiiy obraz» singari komplekslarni tavsiya qiladi. Kasb tanlashga yollash va kasblarni targib qilish usullaridan yana biri–korsatmali vositalar, ya'ni fotostendlardan, kitoblar korgazmasidan, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining mahsulidan, naqqoshlik va texnika togaragi ishlaridan foydalanishidir. Bundan tashqari muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish orqali ham ayrim kasblarga qiziqish uygotish mumkin. Mehnat psixologiyasining mutaxassislari kasbga yonaltirishning boshqacha usullarini: barcha fanlarni oqitishning politexnik jihatini chuqurlashtirishni; tabiiy matematik fanlardan atrofdagi ishlab chiqarishdan ob'ekt sifatida foydalanishni; ijtimoiy turkumdagi fanlarni oqitishda o'lkashunoslik materiallarini qo'llab o'quvchilarning kasbga qiziqishini oshirishni; mehnatga ishtiyoq uygotishni; darslarda kasblar haqida axborotlar berib borishni; mehnat sohalari bilan oquvchilarning mustaqil tanishishi uchun sharoit yaratishni tavsiya etmoqdalar. Qishloq maktablarida kasb tanlash boyicha imkoniyatlar ham mavjud. Chunonchi yozda yuqori sinf o'quvchilarini ishlab chiqarishga bemalol jalb etish mumkin. Bunda jismoniy mehnatga o'spirinlarni qiziqitirish, mehnat natijasidan bahramand etish, ularda mamnuniyat xissini tarkib toptirish, ularda rejali mehnat qilish ko'nikmasini vujudga keltirish, javobgarlik va ma'suliyat xissini tarkib toptirish lozim. Yuqori sinf o'quvchilarini qiziqishlari, mayllari, intilishlari, qobiliyatlari, iste'dodlari asosida tanlagan kasblarga to'g'ri yo'naltirish o'spirinlar uchun katta hayotiy masaladir.

Kasb - hunarga har xil munosabatlar hosil bo'lishining asosiy sababi maktabda, o'qish davrida kasb tanlash bo'yicha turli xil niyatlar paydo bo'lishidir.

Rus psixologi V.A.Krutetskiy o'spirinlarda uchraydigan motivlardan quyidagilarni alohida ta'kidlaydi:

A) biror o'quv faniga qiziqish;

B) vatanga foyda keltirish istagi (o'ziga xos psixologik xususiyat va qobiliyatni hisobga olmagan holda); shaxsiy qobiliyatni ro'kach qilish;

G) oilaviy an'analarga rioya etish (vorislik) do'stlari va o'rtoqlariga ergashish;

D) ish joyi yoki o'quv yurtining uyiga yaqinligi;

E) moddiy ta'minlanish;

J) o'quv yurtiga joylashish osonligi kabi.

Shuningdek, boshqa turdagi motivlar, masalan, shaxsning biror kasbga, fanga moyilligi, maqsadi, unga intilishi, kasb to'g'risidagi ma'lumoti, o'zining sihat -salomatligi, asab sistemasining va temperamentining xususiyatlari va hokazolar ham bo'lishi mumkin. O'spirinlarda kasblar haqida yaqqol tasavvurlar bo'lmasligi sababli, ular xatolarga yo'l

qo'yadilar. Tanlangan va tanlanishi zarur bo'lgan kasb qanday shaxsiy fazilatlarni talab qilishini tushunib yetmaydilar. Biroq, bunday ko'ngilsizliklarni oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu omillarni quyidagicha keltirish mumkin:

-kasblarni o'rganish usullarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va ifoda etish; - psixologlarning kasblar bo'yicha tashviqot ishlari olib borishi, o'quvchilarga kasblar yuzasidan maslahatlar berishi;

-psixolog va ota - onalar bilan birga kasbga yo'naltirish tadbirlirini ko'rib chiqishi; - o'spirinlarni kasbning asosiy turlari bilan tanishtirish;

-mehnat ta'limi darslarida yuqori sinf o'quvchilarini kasbga tayyorlash va qiziqish uyg'otish;

-kasb tanlash usullarini amaliyotga tatbiq qilingan psixodiagnostik usullarini ishlab chiqish;

-kasbga yo'naltirish yuzasidan o'spirinlar orasida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish va psixologik tayyorlash kabi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'spirinlarni yangi hayotga qadam bosayotgan, kelajagini yaratayotgan davrda ularga alohida e'tibor berishlikni, ularning individualxususiyatlaridan kelib chiqib, kasbga yo'naltirishni talab etadi. Zero, o'spirinlar tanlangan kasblaridan kelajakda qoniqish hissini hosil qilishsin. Ilk o'spirinlik yoshida shaxsga yuqoridagi xususiyatlardan tashqari sub'ekt tomonidan anglanmaydigan kasbga qo'yiladigan talablar ham ta'sir qiladi. 15-17 yoshli yigit va qizlarning intilish darajasi ko'pincha yuqori bo'ladi. Bu normal va foydali holat bo'lib, yoshlarni yanada izlanishga va qiyinchiliklarni bartaraf etishga undaydi.

REFERENCES

1. Klimov E. A. Puti v professionalizm. - M.: Filinta, 2003.
2. Karimova V. M. Psixologiya.- T. : 2000.
3. Nishonova Z. T. , Alimbaeva M. V. Psixologik xizmat. -T.: Fan va texnologiya markazi, 2014.
4. G'oziev E.E. Psixologiya. Toshkent, 2008
5. Шагазатова, Б. Х., & Мирхайдарова, Ф. С. (2019). ФАКТОРЫ РИСКА И ОСОБЕННОСТИ КЛИНИЧЕСКОГО ТЕЧЕНИЯ САХАРНОГО ДИАБЕТА 2 ТИПА У ВИЧ-ИНФИЦИРОВАННЫХ БОЛЬНЫХ. In Российская наука в современном мире (pp. 24-25).